“Doʻngkalla” hikoyasida yozuvchi peyzaj tasvirini chizish bilan Doʻngkallani oʻziga xos xarakterini ochib beradi. Shuningdek, “Yozning birinchi kuni” hikoyasida ham yumronqoziqlar sardori Tirtiqning xatti-harakatlar, holati peyzaj yordamida yoritiladi. Ayniqsa, peyzajning asar kompozitsion qurilishida ahamiyati ortib, badiiy niyatni amalga oshirishda muhim vosita sifatidagi oʻrnini “Yongʻin” hikoyasida ham koʻramiz. “Tanasiga chirmashgan olovdan poyasi kuygan azim boboterak uzumzor ustiga gursillab qularkan, yigʻilganlar nazarida olamni jahannam otashi quchganday boʻldi. Yiqilgan daraxtdan chortarafga sochilgan choʻgʻ-u alanga nafaqat zaminni, balki osmon-u falakni ham kuydirib yuboradigandek edi. Olovning shashti baland edi. Uning taftiga chidayolmay chet-chetga qochgan odamlar gʻalati bir sinoatni, yaʼniki alangaga aylangan daraxtning oʻtli panjalari bamisoli ilonday bilanglab, tokzorni yanada kengroq qamramoq koʻyida gʻimirlayotganini sezmay qolishdi. Nega deganda, yarim tunda kutilmaganda yuz bergan bu hodisa barchani yomon dovdiratib qoʻygan. Boz ustiga, koʻpchilikning diqqati tomi gurillab yonayotgan moʻjaz oqish binoga qaratilgandi. Yiqilgan terakka baqamti qad rostlagan bu binoning tomi anchadan beri yonayotgan boʻlsa-da, uni oʻchirmoqqa hech kim oshiqmas, oshiqqanlar esa olov taftiga chidayolmay ortga chekinishar, goʻyo chetdan madad kutishayotgandek, aksariyat kishilar besamar tentirashardi” [http://uzsmart.ru.].

K.Hamrayev "Normurod Norqobilov hikoyalarida esa badiiy peyzaj poetik obrazlar qatorida turadi. Xususan, bola va chol obrazlari tabiatning bir boʻlagiga aylanib, atrofdagi odamlarni kuzatadi. Yozuvchining qaysi hikoyasini oʻqimang tabiatning goʻzal tarovatini, xushbichim nafosatini tuyasiz. "Chol va ilonlar", "Keksa tut", "Buloq", "Kapalak" hikoyalari badiiy peyzaj asosiga qurilgan. Masalan, "Keksa tut" asarida personajlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, keksa tut nigohida bayon qilinadi. Natijada, keksa tut va roviy subyekti qorishib yagona obrazga aylanadi: tepki zarbidan tut daraxti qattiq silkindi. U bu xil kutilmagan zarbalarga koʻnikib ketgan esa-da, negadir bu galgisiga chidashi xiyla ogʻir kechdi. Keksa tanasi ich-ichidan qaqshab, novdalarigacha zirillab va titrab ketdi, shunga qaramay, pinak buzmaslikka urindi – ichidan toʻlqin urgan ingrogʻini shabadada tebranayotgan yaproqlari shovuriga koʻmib, odatdagidek, qaddini adil tutdi. Yozuvchi hikoyada badiiy peyzaj vositasida katta janrlarga xos bugungi kunning dolzarb mavzusini tasvirlagan... Umuman olganda, badiiy peyzaj hikoya tarkibida yozuvchining gʻoyaviy badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi, syujet voqealarini bayon qilishda badiiy obraz ruhiyatidagi chizgilarni tasvirlovchi, asar kompozitsiyasini tashkil qilishda poetik komponentni tashkil etivchi vosita sifatida namoyon boʻladi [Hamrayev K. 2020, 83]" – deb yozgan edi.

Hikoya janrining nazariy-estetik tabiatidan kelib chiqadigan boʻlsak, yagona voqeaning ta'rif-tavsifi asosida A.Qahhar "Oʻgʻri", "Bemor" yoki "Koʻr koʻzning ochilishi" hikoyalarini yaratibgina qolmasdan birgina detal zamiriga "Anor" hikoyasini qurgani bizga ma'lum. Demak, ushbu janrning xususiyatidan kelib chiqilsa, hikoyada detalning ahamiyati anchayin ulkan ekani oydinlashadi. Avvolo, badiiy detalni qoʻllay olish ijodkorning uslubiy mahoratiga bogʻliq bizningcha. Shunga koʻra uni bir qancha turlarga, muhimi, yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqib, guruhlarga tasnif qilish mumkin. M.Veller detalning rang, tovush, hid, ta'm kabi inson sezgi a'zolari orqali bilish mumkin boʻlgan oʻziga xos turlari haqida yozgan edi. Adabiyotshunos Y.Solijonov Sh.Xolmirzayevning uchta hikoyasining tahliliga bagʻishlangan "Detallar tilga kirganda" maqolasida yozuvchi asarlarining quyidagi jihatlariga diqqat qiladi,

“Hikoyalarning boshlanishidanoq butun voqelikka tatigulik muhim detallarga duch kelamiz. E’tibor bering-a: 1. “O‘sha pastlikka egilib o‘sgan gujumcha ostida o‘tiribman. Kursida. Kursining oyoqlari yerga botib ketgan. Namgarchilik-da. Aytdim-ku, yo sakkizinchi, yo to‘qqizinchi may edi... Jiydalar gullagan. Unisining shoxida bir bulbul sayrasa, bunisining shoxida bir bulbul sayraydi. Xo‘roz-makiyon.” (“Quyosh-ku falakda kezib yuribdi”). 2. “Yomg‘ir shunday kuch bilan quya boshladiki, bekat ayvonida turishning iloji qolmadi. Buning ustiga g‘uvillab shamol esar, yomg‘irni bukib-qayirib ayvon ostiga urar edi...” (“Bulut to‘sgan oy”). 3. “Do‘lana shunday turibdi. Yo-yolg‘iz deng. Atrofda na’matak butalariyam yo‘q. O‘smaydi-da bu suvsiz toshloqda. Ammo do‘lana! Qoyilman: suvni qayerdan ichar ekan? Ha-ha, tomiri chuqur ketgan-da, yantoqqa o‘xshab. Kungay tomonida oppoq-oppoq gullari ochilib turar edi” (“Kuzda bahor havosi”).

Hikoyalardagi “gujumcha”, “yomg‘ir”, “shamol”, “do‘lana” peyzaj-manzarani to‘ldirish, tasvirni kuchaytirish niyatida keltirilgani yo‘q, balki hikoya qahramonlarining xarakteriga, tabiatiga, taqdiriga u yoki bu darajada daxldor detallardir [https://n.ziyouz.com/portal]”. Adabiyotshunos maqolada Sh.Xolmirzayev hikoyalarining sarlavhasi va unda qo‘llangan detallar aro sematik-struktur munosabatga jiddiy ahamiyat beradi. Keltirilgan parchadan anglashilganidek, olim hikoyalarning tabiat tasviri bilan bog‘liq detallariga urg‘u beradi. Shunga tayangan holda biz mazkur detallarni peyzaj detal deb olamiz. Peyzaj detallar obyektimiz misolida ham ko‘plab uchraydi. “Zangori ko‘l”da ko‘l va jarlik, dasht, “Do‘stlar”da jarlik, “Enatepa”da tepalik, “Tavatosh”da tosh, “Dashtda” hikoyasida dasht singari. Umuman adib hikoyalarida peyzaj detallarning o‘rni katta. “Dashtda notanish kelinchakni kuzatib borarkan, oqshom bu ishi uchun juvonning xeshlaridan boplab kaltak yeyishini xayoliga ham keltirmagan holda egarda alplardek mag‘rur o‘tirardi. Yomon tili tufayli eridan nasibasini olib, qishlog‘iga arazlab ketayotgan kelinchakning hadikli qarashlarini sezmas, qilayotgan bu ishidan masrur holda borardi. Axir, yigirma odimcha oldin pildirab ketayotgan ojizaga panoh edi-da. U bor ekan, biydek bu dashtda hech kimsa unga dahl qilolmaydi-da [https://n.ziyouz.com/portal].”

Birgina “non” detali “Alam” va “Judolik quvonchi” hikoyalarida muhim poetik vazifa bajargan. Har ikkala hikoyada ham detal muallif badiiy niyatini ifodalab beradi. “Alam” hikoyasining qahramoni Nodirning xarakteri non detali orqali ochilgan boʻlib, asarda Nodir va Tolib aka oʻrtasidagi ziddiyat tasvirlangan. Tolib aka butun umrini halol mehnati bilan temiryoʻl stansiyasida oʻtkazgan, Nodir esa tajribasiz boʻlsada buni tan olgisi kelmaydi. Oʻzini boshliq ekanini koʻrsatmoqchi boʻladi.

“Tungi smenada yuz bergan “ChP”ni sharhlay turib kollektivni hushyorlikka chaqirmoqchiydi u. Ammo maza qilib gapirayotgan edi. Hamma ogʻzingga tikilib tursa, gap degani ichingdan qaynab chiqaverarkan. Shunda deng, bir chekkada gʻijinib oʻtirgan Tolib aka qaynab turgan qozonga toʻsatdan bir parcha muz tashlab yuborsa boʻladimi. “E, boʻldi-da endi, buncha choʻzgʻilaysan!?” Nodir huzur qilib chaynayotgan luqmasidan tosh chiqqanday bir qalqib tushdi. Dovdirab qolib ogʻzidan chiqqaniyam, shu boʻldi: “Agar yoqmayotgan boʻlsa, marhamat, chiqib keting!” “Vaqt... – chol bilagidagi soatga nuqidi. – Nima qilasan bekorchi gaplar bilan boshni qotirib!? Loʻnda qilib ayt-qoʻyda!” Shundan soʻng Nodir u dedi, Tolib aka bu dedi, axiyri chol “Ezma-churruk!” deya eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi [Норқобилов Н. 1990,37]”. Nodir Tolib aka bilan majlisda boʻlgan arzimas tortishuvdan keyin qulay vaziyat paydo boʻlishi bilan undan oʻch oladi.

“Nodirning koʻngli birdan ravshanlashganday boʻldi: qasos daqiqalari yetib kelgan edi! Ana endi, bu cholning popugini shunday pasaytiradi-ki...

– Nima qilganingiz bu?! Esingiz joyidami?! Qani, yuring! Siz bilan boshqa yerda gaplashamiz!

Tolib aka, koʻzi yerda gʻujanak boʻlib yotgan Zokir chapanida, es-hushini yoʻqotgan bir ahvolda shalvirab turardi. Nodir yosh bolani turtkilaganday, uning yelkasiga turtgandan soʻnggina, chol itoatkorona unga ergashdi.

Roʻmolni koʻzlarigacha tushirib tangʻigan juvon depo hovlisini changitib supurar, har supurgi tortganda, axlatga qorishib bir parcha non boʻlagi ham koptokdek dumalardi [Норқобилов Н. 1990, 40]...” Keltirilgan parchadagi detal orqali bir vaqtning oʻzida oʻquv-

chi personajlarning xarakter xususiyatlari, muallif badiiy niyati, asar gʻoyasini anglaydi.

"Judolik quvonchi" hikoyasida ham non detali badiiy obraz darajasiga koʻtariladi. "Deraza raxida esa kecha cholning qoʻlidan tortib olingan non boʻlagi yotardi. Allaqachon unga ega chiqqan chumolilar bandalarning bu yolgʻon uvvoslari bilan ishlari yoʻq, non uvoqlarini bir jonu bir tan boʻlib, imi-jimida oʻz inlariga tashirdi [Норқобилов Н. 2022, 191]". Ayni ikki hikoyada bir detal turli poetik maʼno vazifalarini istifoda etib keladi.

Badiiy asar sarlavhasi xususida adabiyotshunos H.Umirov shunday yozadi: "Asar sarlavhasi shunday bir yoki bir nechta soʻzda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni oʻzida aniq, nomlanishidanoq oʻquvchini oʻziga jalb qilishi lozim [Умуров Ҳ. 2004, 136]". Shuningdek, K.Hamrayev "Hikoya kompozitsiyasi" nomli monografiyasida sarlavhaning tiplari va strukturasiga alohida toʻxtalib, sarlavhaning toʻrt xil turini keltiradi, Ruhiy-emotsional sarlavhalar qatorida A.Qahhor "Dahshat", Sh.Xolmirzayev "Koʻngil", "Nimadir yoʻq boʻldi", A.Yoʻldoshning "Yolgʻon va haqiqatlar" hikoyalari bilan birga N.Norqobilovning "Ayriliq quvonchi" hikoyasini ham sanab oʻtadi. Ruhiy-emotsional sarlavhalar haqida gapirib, K.Hamrayev "Qaysidir ruhiy holatning butun asarda mujassam qilinishi sababli u sarlavha oʻlaroq hikoya tepasidan joy oladi [Ҳамраев К. 2020, 100]" – deydi.

Bizningcha, ijodkor oʻz asarini yozish jarayonida uning onggida asarni jamlab, butlab turgan yagona bir chiziq, yoʻl, deylik bu asar gʻoyasi boʻlsin, mavjud boʻladi-ki, sarlavha ana shu gʻoyaning, yoki aytaylik asar mazmunining muxtasar nomi. Ushbu jumlalar sarlavhaning butun mohiyatini oʻzida ifoda etmagan boʻlsa-da, har holda asarning barcha qism va boʻlaklarini oʻzida mazmunan istifoda etgan lunda bir soʻz yoki jumla koʻz oldimizda sarlavhani gavdalantiradi. Sarlavha tanlash tabiiy-ki, muallifning mahorati bilan bevosita bogʻliq, baʼzi asarlarning nomlari ijod jarayonida dunyoga kelsa, ayrim asarlar yakuniga yetgach muallif unga sarlavha qoʻyadi. Baʼzida esa muallif asar nomini oʻzgartirib boshqa sarlavha tanlaydi. Bunday holatlar adabiy jarayonda koʻpda kuzatilmaydi, biroq mohir hikoyanavis Shukur Xolmirzayev "Havas" (1972) nomini oʻz-

gartirib "O'zbekning soddasi", To'xtamurod Rustam o'z romanini "Kapalaklar o'yini" deb nomlagan bo'lsa keyingi nashrda "Dengiz ko'rmagan odamlar", Nazar Eshonqul "Evalyutsiya"ni o'rniga "Istilo" sarlavhasini qo'llagan.

N.Norqobilovning hikoyaga sarlavha tanlashi boshqa adiblarnikidan farq qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, adib ijodining kompozitsion o'ziga xosligi aynan sarlavhada ko'zga tashlanadi. Masalan, adib bir hikoyaga ikki xil nom qo'yadi yoki bir nomda ikki xil hikoya yaratgan-ki, chalkashliklarni yuzaga keltirmaslik uchun adib ijodidagi bu jihatga alohida e'tibor qaratish zarurati tug'iladi. Ularni quyidagicha shartli uch xil guruhga bo'ldik.

Birinchi, sarlavha o'zagarsa ham ma'nosini qisman saqlanib, asarning g'oyaviy mazmuni o'zgarishga uchramagan "Yakson bo'lgan qit'a", "Loyxandaqdagi besh qit'a" *("Chetdagi odam" 2016-yil)* yoki "Xandaqdagi besh qit'a" *("Tanlangan asarlar" 2022-yilda)* "Yuk" hikoyasi *(Yoshlik jurnali 1984-yil, 2-son)* "Tavatosh" nomi bilan (*1987-yilda nashr qilingan "Zangori ko'l")* "Ayriliq quvonchi" (*2010)* yoki "Judolik quvonchi" *("Chetdagi odam" 2016-yil, "Tanlangan asarlar" 2022-yilda)*, "Qo'shiq" *(2000-yil)* yoki "Mung" *(Chetdagi odam" 2016-yil, "Tanlangan asarlar" 2022-yilda)* va "Bo'ron qo'pgan kun" (*2005)* yoki "Quyun" *("Chetdagi odam" 2016-yil)* hikoyalar.

Ikkinchi, sarlavha o'zgarishi bilan asar g'oyaviy mazmuni mutloq o'zgargan, biroq ayni syujet saqlangan asar. "Oriyat" *("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2014 yil 13-son)* hikoyasining sarlavhasi keyingi nashrda "Chetdagi odam" nomi bilan o'zgargan *(shu nomdagi hikoyalar to'plami 2016-yilda e'lon qilingan, 2022-yilda "Tanlangan asarlar"iga ham shu nom bilan kiritilgan)*.

Uchinchi, bir nom turli xil syujetdagi asarlarga qo'llangan. Adib "O'g'ri" sarlavhasi ostida **uch xil syujetdagi** hikoya yozgan *("Unitilgan qo'shiq" hikoyalar to'plami 1990-yil, (hikoya qahramoni Sattor), "Paxmoq" qissa va hikoylar to'plami 1997-yil, (asar qahramoni Vohid), "Tanlangan asarlar" 2022-yil, (hikoya qahramoni Mirhaydar).* "Kurash" *(hikoya qahramoni Hamida momo)* sarlavhasi 2013-yilda e'lon qilingan hikoyaga va 2018-yilda e'lon qilingan qissaga *(qissa qahramoni Xurram qotma)* ham qo'yilgan. 2000-yilda nashr qilingan "Bekatdagi oq uycha" to'plamidan "Oriyat" nomli hikoya joy

olgan boʻlib uning yuqoridagi 2014-yilda yilda yozilgan hikoyadan syujeti mutloq farq qiladi. Ushbu asar qahramoni Hasan palvon.

Yuqorida sarlavha oʻzagarsa ham, maʼnosi qisman saqlanib qolgan hikoyalar qatorida “Ayriliq quvonchi” yoki “Judolik quvonchi” hikoyasini sanagan edik. Ushbu hikoyaga “Ayriliq quvonchi” nomini qoʻygan adib keyingi nashrlarda sarlavhani qayta oʻzgartiradi. Chunki, sarlavha uchun tanlangan “ayriliq” soʻzi asarning mohiyatini toʻla ifoda etmaydi. Asar qahramoni bola bobosi Norboy choldan ayrilmadi, balki butunlay judo boʻldi. Bizningcha ham asarning “Judolik quvonchi” deb nomlanishi toʻla maʼnoda oʻzini oqlaydi.

Hikoyaning ilk jumlasi xabar bilan “Bola doʻngda bobosi Norboy cholni kun qaytganidan beri kutadi [Норқобилов Н. 2022, 182]” – deya boshlanadi. Bizningcha mana shu ilk jumlaning oʻzida asarda roʻy beradigan voqelikka ishora bor. Yaʼni kun qaytishi, quyoshning yaqin orada botishi, kun yakunidan obrazli qilib aytganda esa “umr shomi”dan darak beradi. Ushbu hikoyada his-tuygʻular, obrazlar, detallar qarama-qarshi qoʻyilganini koʻramiz. Yigʻi va quvonchning bir biriga qarshi qoʻyilishi chin maʼnoda muallif mahoratini koʻrsatadi. Zero, chinakkam badiiy asargina qaygʻuda quvonch, quvonchda qaygʻuni ifoda etadi-ki, adib buni sarlavhaning oʻzidayoq mahorat bilan koʻrsatib bergan.

Asarda bola va Muso obrazlarining xarakteri Yomonqul, Bozor, cholning qizi feʼl-atvoriga qarshi qoʻyiladi. Adib ismlarni ham asar personajlarining xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib tanlaydi-ki, Bozor, Yomonqul obrazlari nafs kishilari sifatida gavdalanadi. Yozuvchi “Chetdagi odam” hikoyasida ham Muso ismini qoʻllagan, ikkala hikoyada ham Muso ismi ramziylik kasb etib insoniylik timsoliga aylanadi.

Asarda detallar maʼlum maʼnoda ramziylikka ega. Hikoya doʻnglik detalidan boshlangan boʻlsa, yakunida qotgan nonni chumolilar iniga tashib ketishi bilan tugaydi. Doʻnglik detali hayotni, chumolilar ini esa qabrni ifodalaydi. “Sarlavhada maʼnaviy zidlov kuchli matematik hisobda 2x2=4 boʻlganidek, hayot mantigʻiga koʻra ham “judolik” soʻzi “qaygʻu, istirob” soʻzlari bilan muvofiq keladi. Judolik odam bolasini quvontiradi deyishi 2x2=5 degandek gap. Biroq asl adabiyot mana shu paradoksal haqiqatni isbotlay oladi.

N.Norqobilov ham mana shu ikki zidni bir hikoyada jamlab, badiiy asoslab berishga erishgan. Hikoya qahramoni – bola doʻngga chiqib olib, kemshik ogʻzida qotgan non shimayotgan, munkayibgina shahardagi oʻgʻlini kutayotgan bobosini yaxshi koʻradi. Ayni paytda uning tezroq oʻlishini istaydi. Hikoya mana shu istakni asoslashga, badiiy-mantiqiy yechimini topishga qaratilgan [Жўрақулов У. 2018, 7 декабрь №50].”

“Mung” *(“Qoʻshiq”),* “Boʻron qoʻpgan kun” *(“Quyun”)* hikoyalarining sarlavhasi haqida aytib oʻtish kerakki, adib “Tanlangan asarlar” (2022) toʻplamida yana qaytadan mazkur hikoyalarni “Mung” va “Boʻron qoʻpgan kun” sarlavhalari bilan e’lon qildi. Hikoyalarning syujetidan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, ushbu sarlavhalar har ikkala hikoyaga munosib nom. “Boʻron qoʻpgan kun” hikoyasida qahramon asar boshidan psixologik jihatdan tayyorlab kelinadi. Sanam xolaning ichidan asta-sekinlik bilan yetilib kelayotgan, ornomusni unutgan guzardagi kimsalarga boʻlgan alam va nafrati bir kun kelib kutilmaganda boʻron kabi oʻzini koʻrsatishi aniq edi. “U qassobni nigohi bilan “nimta”lab, nari oʻtadi. Yemakxonaga yetib-yetmay toʻxtaydi. Koʻzlari Eshqul somsapazni gangitib, stol tevaragida oʻtirganlarda qoʻnim topadi. Nechundir faqat tuk bosgan ensalar-u, yagʻir yoqalarnigina koʻradi. Oʻtirganlar qiyofasini ilgʻamaydi, toʻgʻrirogʻi, ilgʻayolmaydi. Shunda olam kir, tiriklik chirkin tuyuladi. Najot istab, ufqqa koʻz tashlaydi. Ufq tuproq rangida, osmon ham shu tusda. Qaynoq garmsel borliqni toʻzonga burkamoqchidek, oʻqtin-oʻqtin quturadi. Oqibat, kishilik qiyofasi changga belanganu, ularda mana shu tuk bosgan ensalar-u, yagʻir yoqalargina qolgandek goʻyo. Bundan uning yuragi battar siqiladi va beixtiyor tiliga shu gaplar koʻchadi: “Xudoyimi-iy, bularni yaratib nima qilarding, a?! [Норқобилов Н. 2022, 250]” Keltirilgan parchada adib har bir detal va peyzajdan mohirona foydalanadi. Peyzaj qahramon ruhiyatiga mos tasvirlanadi. Ayniqsa, garmselni goʻyoki borliqni toʻzonga burkamoqchidek tasvirlanishi asarda sodir boʻlajak “boʻron”dan darak, ishora berib turibdi. Asar yakunida Sanam xola qoʻlida bolta ushlagancha shiddat bilan otilib guzardagilarga qarshi chiqishi ular uchun toʻsatdan paydo boʻlgan boʻron kabi daxshatli boʻldi.

Agar yozuvchi sarlavhaga “Quyun”ni chiqarganda edi ikki jihat-

dan asarga mos kelmagan bo‘lar edi sarlavha. Birinchidan quyun so‘zi bo‘ronga nisbatan muallif yuklamoqchi bo‘lgan ma’no bilan birga asar syujetini o‘zida ifoda etolmaydi. Ikkinchidan, asarda qahramonni ichidagi g‘azabni paydo bo‘lishi, uni sekinlik bilan, kun sayin kuchayib, oshib borishi va kuni kelib o‘zini ko‘rsatishi tasvirlangan. Bu tomondan qaralsa asar voqeligini, u sodir bo‘ladigan kunga berilgan ishorani “Bo‘ron qo‘pgan kun” sarlavhasi ifodalay oladi.

“Mung” hikoyasida ham “Bo‘ron qo‘pgan kun” hikoyasi singari ruhiy-emotsional tasvir xususiyati ustunlik qilishini kuzatamiz. Asarda qahramonning voqelikka munosabati sentimentallik kasb etib, cholning ichki istiroblari, emotsional holati tasvirlanadi. “Mujjalari yumiq – bunaqa payt hech narsani ko‘rmaydi, eshitmaydi. Ko‘z yoshlari ajin tilimlagan ko‘zlarini yumib, moshgurich saqolida marvarid donalariday qotarkan, botayotgan quyoshning qizg‘ish nurida bamisoli yoqutday tovlanadi. Kuylayotganida chol bu olamning odami bo‘lmay qoladi. Ovozi o‘tmishning teran chohlaridan selqib chiqayotgandek, kishida g‘alati bir hisni tug‘diradi – etni junjiktiradi, ham hayolga toldiradi. Dunyo ko‘hna, u esa dunyodan ham qadim ko‘rinadi [Норқобилов Н. 2022,146]. Keltirilgan parchada qahramon ruhiy olamining ich-ichiga kirib, uning yuragi tubidagi alam va iztirobning mohirona chizilgan tasvirini ko‘ramiz. Qachonlardir sevikli ayolidan ajralgan, yolg‘iz, cholning mungli, ezgin qiyofasining gavdalanishi, bu alam va dard hikoya so‘ngiga qadar qahramonni tark etmasligi asarga “Qo‘shiq” sarlavhasini tanlanishi mos kelmasligini ko‘rsatadi. “Qo‘shiq” so‘zida ma’lum ma’noda ijobiy bo‘yoqdorlikka ega, u tushkinlikni emas, jo‘shqin va ko‘tarinki kayfiyatni bildiradi. Qahramonning ruhiy holati va asar mazmuni ham “mung” so‘zi hazinlik, ma’yuslik ma’nolarani anglatishi sababli sarlavha darajasiga chiqa oladi. Shuning uchun muallif “Qo‘shiq” sarlavhasi o‘rniga “Mung”ni qayta qo‘yishi o‘zini oqlaydi.

“Chetdagi odam” yoki “Oriyat”. Biz ikki nom bilan ataladigan *yagona syujetdan* iborat ushbu hikoyalarni keyingi o‘rinlarda “Chetdagi odam” va “Oriyat” sarlavhalari bilan ataladigan *ikki mustaqil hikoya* sifatida qaraymiz. Hikoya voqealari markazida turgan, uning syujetini siljitib, rivojlantiradigan, asar g‘oyasini o‘zida tashiydigan

*Muso ferma* obrazi “Chetdagi odam” hikoyasining bosh qahramoni sanaladi. Ushbu hikoyaning nomi asardagi obraz nomidan kelib chiqqan sarlavha hisoblanadi.

“Oriyat” hikoyasida detal sifatida or-nomus tuygʻusi asar qismlari, epizodlarini jamlab turadi. Badiiy detalning bir turi boʻlgan ruhiyat detali sarlavha darajasiga koʻtariladi. Ushbu hikoya qahramoni Bola.

N.Norqobilov hikoyalariga qisqa loʻnda sarlavha tanlaydi. Adib obrazlilikka, ramziylikka, polesemantik maʼnoga ega soʻzlarni sarlavhaga olib chiqmaydi. Adib nisbatan anʼnanaviy yoʻldan boradi. Uning sarlavhalari Abdulla Qahhor hikoyalarining nomlarini yodga soladi. Yozuvchi hikoyalarining sarlavhalarini quyidagicha tasnif qilish mumkin. Bular detal, makon, zamon, ramziy, emotsional, obraz nomidan olingan shartli tasnifga kirivchi sarlavhalar. Shartli deyishimizga sabab esa emotsional sarlavha ramziylikka ega boʻlishi yoki vaqt va zamon tasnifidagi sarlavha boshqa tasnifga ham aloqadorlikka ega boʻlishi mumkin.

Detal sarlavha – “Roʻmolcha”, “Tavatosh”, “Kapalak”, “Quduq”, “Kitob” va boshqa sarlavhalar. Adib hikoyalarining katta qismini detal sarlavhalar tashkil etadi. Detal sarlavhalar haqida gapirganda aytib oʻtish kerakki, hikoya syujetida badiiy detal muhim ahamiyatga ega boʻlish bilan birga, qahramonlar taqdirida ham katta rol bajargani uchun asar sarlavhasi darajasiga chiqadi. Masalan, yozuvchining “Roʻmolcha” hikoyasini oladigan boʻlsak u “...xarakterli bir detal – oddiygina roʻmolcha bilan bogʻliq hodisalar asosiga qurilgan. Hikoyada oshiq-maʼshuqlarga daxldor, tasodifan bola qoʻliga tushib qolgan, bosh hoshiyasiga qizil ipak bilan toʻr toʻqilgan, bir chetiga esa oshiq – maʼshuqlar ismining bosh harfi chatilgan oddiy sariq roʻmolcha bir necha personajlar bisotini ochib beruvchi sehrli kalit vazifasini oʻtaydi... Hikoyada oddiy detal jiddiy maʼnodorlik kasb etib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qiladi [Ёшлик, 1983, 2-сон. 39].”

Makon bilan bogʻliq sarlavhalarga “Pivoxonada”, “Yoʻlda”, “Chorraha”, “Yoʻlak”, “Ziyoratgoh”, “Dashtda”, “Enatepa”, “Qorovultepa”, “Yakkasuv”, “Tepalik” hikoyalari misol boʻladi. Ushbu sarlavhalar, hikoya syujeti konkret makon doirasida kechishi, yoki

muayyan makon detalining badiiy obraz darajasiga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bu xil hikoyalar asosiy planda qahramonning ichki olami bilan parallel ravishda ma'naviy qiyofasi, e'tiqodini tasvirlashi jihatidan ajralib turadi. Shuningdek, asar voqeligi ro'y beradigan makon qahramon taqdirida yoki ruhiyatida keskin burilish yasaydi.

Badiiy asar syujetida vaqtni, zamonni ifodalovchi sarlavhalarga adibning "Yomg'irli oqshom", "To'y kechasi", "Yozning birinchi kuni", "Tungi mehmon" va boshqa hikoyalari kiradi. Ushbu hikoyalar syujeti makon va zamon chegarasida, bir xronotop doirasida kechadi. Masalan, "Tungi mehmon" hikoyasida badiiy voqelik Chamanoyning hovlisi va tun bilan chegaralansa, "Yozning birinchi kuni"da voqealar daryo sohilada, quyosh botgungacha ro'y beradi.

Qahramonning emotsional holati bilan bog'liq sarlavhali hikoyalarga "Mung", "Quvonchli kun", "Bo'ron qo'pgan kun", "Alam", "Tugatilmagan surat" kabilar kiradi. Mazkur hikoyalarda qahramonning botiniy his-tuyg'ularini tasvirlash yetakchilik qiladi. Bunga "Mung" hikoyasida ichki dard va istirobning keng tasvirlanishi aniq misol bo'ladi. Bu xil sarlavhali hikoyalarda tashqi yoki ichki tasir natijasida qahramon muayyan ruhiy holatni boshdan kechiradi.

Obraz nomidan yoki ismidan olingan sarlavhalarga "Buloq", "Do'ngkalla", "Oqbo'yin", "Qizcha", "Qashqa", "Sut sotuvchi bola", "Chol va bola", "Chetdagi odam" hikoyalari kiradi. Ushbu sarlavhalar bevosita hikoyaning bosh obraz nomidan olinib sarlavha o'laroq asar tepasidan joy olgan.

Ramziy sarlavhaga ega bo'lgan hikoyalarga "Quyoshi botmaydigan yurt", "Quyosh tutilgan kun", "Unutilgan qo'shiq", "Zangori ko'l" va boshqalar kiradi. Ushbu sarlavhalar o'ziga xos, shartli ramziylikka ega. "Quyosh tutilgan kun" hikoyasi syujetida quyoshning tutilishi oxirgi zamonga, qiyomatga ishora qiladi. "Unutilgan qo'shiq" hikoyasida esa yoshlik davriga ishora qilinadi.

N.Norqobilov hikoyalari kompozitsion jihatdan o'ziga xos bo'lib, bu uning qahramonlar ruhiyatini peyzaj bilan parallel tasvirlashda ko'rinadi. Bunga misol sifatida adibning "Quyosh tutilgan kun" hikoyasini olish mumkin, negaki ayni hikoyada peyzaj ruhiyat tasviridan tashqari, personajlar mansub muhitning qiyofasini ham

chizishda qo‘l kelgan. Shuningdek, yozuvchi detalni asarning konsepsiyasiga mos ravishda mohirona qo‘llaydi.

Adib asarlarida sarlavha asarning mazmunini belgilovchi kompozitsiya unsuri sifatida ko‘zga tashlanadi. Adib o‘z ijodiy niyatiga ko‘ra asarlariga nom qo‘yadi. Asarning muhim tarkibiy qismi sanalgan sarlavha orqali o‘quvchi asar olamiga kirib boradi. Normurod Norqobilovning sarlavha qo‘llashdagi mahorati adib hikoyalari konsepsiyasining yaxlitligini ta’minlashiga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar


1. Жўрақулов У. Берса инояти, йўқса синоати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018, 7 декабрь. №50.

2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 233.

3. Жўрақулов У. (2023). “Илми балоғат”нинг маншаъи. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). Извлечено от http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/view/2.

4. Жўрақулов Узоқ. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – 203 б.

5. Sirojiddinov Sh. (2011). Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr.

6. Сирожиддинов Ш. Учинчи ренессанс концепциясининг универсал асослари // SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – 2022. – Т.1. – №1.

7. Quronov D. 2020. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.

8. Ёшлик журнали 1983, 2-сон. – В. 39.

9. Қўшжонов М. 1983. Сайланма. 2 жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат.

10. Норқобилов Н. 2022. Танланган асарлар. – Тошкент: Фирдавс-Шоҳ.

11. Норқобилов Н. 1990. Унутилган қўшиқ, Ҳикоялар. – Тошкент: Ёш гвардия.

12. Умуров Ҳ. 2004. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – В. 136.

13. Худойбердиев Э. 2007. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. – B. 80.

14. Ҳамроев К. (2023). “Садди Искандарий” ва “Ҳамлет”да “билиб қолиш” мотиви. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). Извлечено от http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/ article/view/16.

15. Норқулова М. (2023). ИНСОН БОТИНИНИНГ ЭПИК ТАСВИРИ. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). 2023.

16. Abdushukurov B.B. Ethnonyms in the Works of Alisher Navoi. Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies September 16–17, 2023, in Virtual, India | VOL. 1 NO. 1 (2024): PAMIR ONE PREPRINTS.

17. Yakubov Islamjon. Çağdaş özbek romanlarinin poetik yapisinda şarki ve türkülerin yeri / Dil ve edebiyat araştirmalari i karabük üniversitesi yayınları: 53 Karabük – 2020.

18. Зияева Ю. (2023). Навоий ва Шекспир: “Ошиқ-маъшуқа-рақиб” учлиги. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/view/15.

19. Ҳамраев К. 2020. Ҳикоя композицияси. Тошкент: Nurafshon bussenes.

20. Зияева Ю. Classic friendship and the image of “ashiq-mashuqa-raqib”. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 83–100 pp.

21. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). http://universaladabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/view/25.

22. Mahmadiyor Asadov. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF THE IMAGE OF SISYPHUS IN WESTERN AND UZBEK LITERATURE. World Bulletin of Social Sciences, 9, 75-78.

23. http://uzsmart.ru.